MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

Olimpiada topshiriqlari (III bosqichi)
DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI 10

1-qism: Har bir topshiriq 1,3 balldan baholanadi

1. Mehnat qobiliyatini va daromadlarni yo‘qotish bilan bog‘liq ijtimoiy xatarlarning oqibatlaridan aholini kompensatsiyalash tizimi nima deyiladi?

A) Ijtimoiy nafaqa B) Ijtimoiy sug‘urta C) Moddiy yordam D) Ijtimoiy badal

2. Xalqaro mehnat tashkilotining Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to‘g‘risidagi 138-son konvensiyasida bolalarning mehnat qilishi yoki yollanib ishlashi uchun necha yoshdan kichik bo‘lmasligi belgilangan?

A) 15 yosh B) 13 yosh C) 11 yosh D) 18 yosh

3. “Irqiy kamsitishlarning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida”gi xalqaro konvensiya qachon imzolangan?

A) 1979-yil B) 2006-yil C) 1965-yil D) 1984-yil

4. Chet el fuqarolarini O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish to‘g‘risidagi qaror kim tomonidan qabul qilinadi?

A) Prezident B) Bosh vazir C) Bosh prokuror D) Ichki ishlar vazirligi

5. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari to‘rt bosqichda amalga oshiriladi. “Temurbekning vorislari”, “O‘zbekistonning farzandlari botir bo‘lur” kabi harbiy sport musobaqalari qaysi bosqichga xosligini aniqlang.

A) birinchi B) uchinchi C) ikkinchi D) to‘rtinchi

6. O‘zbekiston Respublikasida Ombudsman lavozimi qachon joriy etilgan?

A) 1997-yil B) 1995-yil C) 1991-yil D) 2000-yil

7. Voyaga yetmaganlarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosi qancha muddatga tayinlashi mumkin?

A) besh oydan yetti yilgacha B) olti oydan besh yilgacha
C) olti oydan o‘n yilgacha D) besh oydan o‘n yilgacha

8. Qaysi huquq milliy huquq tizimida huquqning yetakchi tarmog‘i hisoblanadi?

A) Konstitutsiyaviy huquq B) Jinoiy huquq C) Agrar huquq D) Ma’muriy huquq

9. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida nimalar oliy qadriyat hisoblanadi?

A) Inson hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati B) Davlat manfaatlari ustunligi
C) Davlat va jamiyat munosabatlari D) Qonun ustuvorligi

10. Ikki palatali parlamentni saylash to‘g‘risidagi masala qachon bo‘lib o‘tgan referendumda hal etildi?

A) 1991-yil 29-dekabr B) 1992-yil 31-avgust
C) 2002-yil 27-yanvar D) 1991-yil 18-noyabr

2-qism: Har bir topshiriq 2,4 balldan baholanadi

11. BMT nizomi qachon va qayerda tasdiqlandi?

A) 1945-yil Chikagoda B) 1960-yil San-Fransiskoda
C) 1945-yil San-Fransiskoda D) 1945-yil Kaliforniyada

12. Butun insoniyat tarixida bizning sayyoramizda qancha urush bo‘lib o‘tgan?

A) 10 mingga yaqin B) 15 mingdan ortiq C) 30 mingga yaqin D) 100 mingga yaqin

13. Uyg‘onish davri mutafakkirlari sharqning qaysi huquqshunosining g‘oyasini yoqlashgan?

A) Imom Burxoniddin al-Marg‘inoniy B) Imom Buxoriy
C) Imom at-Termiziy D) Muhammad al-Xorazmiy

14. Voyaga yetmaganlar qanday asosga ko‘ra ishga joylashish mumkin?
A) ota-onaning og‘zaki roziligi orqali B) ota-onaning yozma roziligi orqali
C) maktabning roziligi orqali D) hech qanday roziliklarsiz
9-sinf huquq 51-bet

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11 yillik ta’lim olish to‘g‘risida farmoni qachon imzolandi?
A) 2016-yil 25-fevral B) 2017-yil 25-yanvar
C) 2018-yil 25-fevral D) 2018-yil 25-yanvar

16. Ma’lum bir shaxslar va tashkilotlarning xatti-harakatlari, ijtimoiy-siyosiy voqealarga nisbatan munosabatini oshkora ifodalash maqsadidagi fuqarolarning tinch yig‘ini nima deyiladi?
A) namoyish B) yig‘ilish C) miting D) saylov

17. Ariza nima?
A) fuqarolarning o‘z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari amalga oshirish uchun ko‘mak so‘rab qilingan murojaatlaridir.
B) fuqarolarning davlat va jamoatchilik faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalarini ifodalovchi murojaatlaridir.
C) fuqarolarning buzilgan huquqlari erkinliklari va qonuniy manfaatlarini tiklashni talab qilish to‘g‘risidagi murojatnomalaridir.
D) bu ma’lum bir siyosiy talablarni bildirish maqsadidagi hujjat.

18. 18 yoshgacha bolalari bo‘lgan oilalarga va bola 3 yoshga to‘lguniga qadar uni parvarish qilish nafaqasi hamda kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam uchun har oylik pulli kompensatsiyalarni tayinlash qaysi tizim orqali aniqlanadi?
A) Ijtimoiy yordam reyestri B) Ijtimoiy himoya agentligi moduli
C) Ijtimoiy himoya yagona reyestri D) mehr-sahovat agentligi reyestri

19. Mamlakatimizda bugungi kunda qancha nodavlat notijorat tashkilotlar va mahallalar faoliyat yuritadi?
A) 9800 dan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlar, 10 mingga yaqin mahallalar
B) 5800 dan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlar, 2 mingga yaqin mahallalar
C) 1200 dan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlar, 10 mingdan ortiq mahallalar
D) 6250 dan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlar, 50 mingga yaqin mahallalar

20. “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi ro‘yxatdan o‘tgan sanasi yozilgan qatorni belgilang.
A) 1991-yil B) 1995-yil C) 1996-yil D) 2003-yil

21. Onalik va bolalikni muhofaza qilishda, sog‘lom avlod kamol topishi uchun moddiy shart-sharoitlar va ma’naviy muhitni ta’minlashda alohida hizmatlar ko‘rsatgan shaxslar qanday orden bilan taqdirlanadilar?
A) “Sog‘lom avlod uchun” ordeni B) “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni
C) “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni D) “El-yurt hurmati” ordeni

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “O‘zbekiston Respublikasining davlat xavfsizlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmon nechanchi yilda imzolangan?
A) 2019-yil 4-yanvar B) 2018-yil 14-mart C) 2016-yil 5-aprel D) 2017-yil 18-dekabr

23. Davlat, davlatni boshqarish shakllari, davlatning vazifalari va boshqa shu singari tuchunchalarga ta'rif bergan allomani toping.
A) Abu Nasr Forobiy B) Abu Ali ibn Sino
C) Ali ibn Abu Tolib D) Abu Rayhon Beruniy

24. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi moddasida "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, shuningdek, ular jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar" degan jumla keltirilgan?
A) 19-moddasida B) 13-moddasida C) 41-moddasida D) 31-moddasida

25. Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida Respublikada istiqomat qiluvchi barcha millatlar va xalqlarning manfaatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi qaysi prinsiplarga tayanadi?
A) Insonparvarlik, liberalizm, demokratiya B) Konservatizm, liberalizm, imperiyalizm
C) Liberalizm, gumanizm, qonunchilik D) Kollegiallik, demokratiya, qonunchilik

3-qism: Har bir topshiriq 3,4 balldan baholanadi

26. Huquq sohasini tartibga soluvchi jihatlari bilan birga moslashtiring.
a) Fuqarolik huquqi sohasi; b) Jinoyat huquqi sohasi;
1) korxonalar, tashkilotlar va ularning xodimlari o'rtasidagi mehnat munosabatlari tartibga solinadi;
2) oiladagi, oila va nikoh bilan bog'liq munosabatlari tartibga solinadi;
3) mulk bilan aloqador hamda nomulkiy munosabatlar tartibga solinadi;
4) qanday xatti-harakatlar jamiyat uchun xavfli ekanligi belgilanadi.
A) a – 1; b – 2 B) a – 2; b – 4 C) a – 1; b – 3 D) a – 3; b – 4

27. Federativ davlatlar to'g'ri berilgan javobni toping.
A) AQSH, Kanada, Braziliya, Meksika, Avstriya, Belgiya, Shveysariya, Portugaliya, Argentina, Rossiya
B) AQSH, Kanada, Braziliya, Meksika, Yaponiya, Belgiya, Shveysariya, Pokiston, Argentina, Rossiya
C) AQSH, Kanada, Braziliya, Meksika, Yaponiya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Pokiston, Argentina, Rossiya
D) AQSH, Kanada, Braziliya, Meksika, Avstriya, Belgiya, Shveysariya, Pokiston, Argentina, Rossiya

28. Ma'muriy qamoq qancha muddatga tayinlanadi?
A) 3 sutkadan 15 sutkagacha, ayrim hollarda 30 sutkagacha
B) 3 sutkadan 10 sutkagacha, ayrim hollarda 15 sutkagacha
C) 10 sutkadan 15 sutkagacha ayrim hollarda 20 sutkagacha
D) 2 sutkadan 7 sutkagacha, ayrim hollarda 30 sutkagacha

29. Ayblilik tushunchasiga mos keluvchi ta'rif berilgan javobni toping.
A) har qanday huquqbuzarlik sodir etgan shaxsning vakolatli davlat organi tomonidan javobgarlikka tortilishi
B) huquqbuzarning qonun yoki huquq normalari belgilab qo'ygan majburiy talablarini buzishidir
C) o'z xatti-harakatini tushunadigan va unga javob bera oladigan insonning huquqqa zid, qonun talablariga qarshi xatti-harakatidan kelib chiquvchi aybi
D) bunda huquqbuzar jamiyatning qadri yatlariga tajovuz qiladi, inson hayotiga suiqasd qiladi, davlat va boshqa insonlarga zarar keltiradi, ularning mol-mulkini nobud qiladi

30. Quyida keltirilgan huquqiy atamalar va ularga berilgan ta'riflar mos hamda to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.
1) Huquq manbayi; 2) Yuridik pretsedent; 3) Huquqiy odat
a) davlat irodasini muayyan huquqiy-normativ hujjatlar, qonun normalarida ifodalash, bayon qilish usuli va shaklidir;

b) bu jamiyat a'zolari tomonidan uzoq vaqt qo'llanilishi, doimiy takrorlanishi natijasida jamiyat tomonidan qabul qilingan xulq-atvor normasiga aylangan va keyinchalik davlat tomonidan tasdiqlangan qoidaga aytiladi;
c) sudning umummajburiy ahamiyatga ega bo'lgan aniq bir ish bo'yicha qaroridir.
A) 1-a, 2-c, 3-b B) 1-b, 2-a, 3-c C) 1-c, 2-b, 3-a D) 1-a, 2-b, 3-c

31. Normativ-huquqiy hujjatlarning turlari to'g'ri ketma-ketlikda ko'rsatilgan javobni toping.
A) Qonun, farmon, buyruq, ijroiya organlarining qarorlari
B) Farmon, buyruq, qaror, qonun
C) Qonun, farmon, hukumat qarori, vazirlik buyruqlari
D) Hukumat qarori, qonun, vazirlik buyruqlari

32. Huquqiy atamalarga mos javoblarni to'g'ri joylashtiring?
1) Gipoteza; 2) Sanksiya; 3) Dispozitsiya
a) xulq-atvor qoidalarining o'zi ifodalanib, huquq subyektlarining huquq va majburiyatlari belgilab beriladi.
b) norma harakatga kelishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar bayon etiladi.
c) huquq normalari bajarilmagani uchun davlat tomonidan qo'llaniladigan majburlov chorasi bayon etiladi.
A) 1-a, 2-b, 3-c B) 1-b, 2-a, 3-c C) 1-b, 2-c, 3-a D) 1-c, 2-a, 3-b

33. Qaysi voqea Germaniyada "Havo kemalari bo'yicha xavfsizlik to'g'risida"gi qonunni qabul qilish bo'yicha harakatlarga turtki berdi?
A) 2001-yil 11-sentyabrda AQSHda mudhish terrorchilik harakati sodir etilishi
B) 2003-yil 5-yanvarda samolyotning Frankfurtdagi binoga urilishi
C) 2002-yil 2-fevralda Germaniyada saylovlarning bo'lib o'tishi
D) 2001-yil 10-noyabrda Germaniya konstitutsiyasiga o'zgartirishlarning kiritilishi

34. Quyidagilardan noto'g'ri berilgan javobni aniqlang.
A) Agar ommaviy axborot vositalarida noto'g'ri bo'lgan, shuningdek inson qadr-qimmati va obro'sini tahqirlovchi ma'lumotlar e'lon qilingan bo'lsa, u holda ana shu ma'lumotlarni chop etgan nashrda bunday ma'lumotlar uchun raddiya berishga haqlidir
B) O'z faoliyatida odamlarni uning xatti-harakatlariga qarshi yo'naltirilgan ba'zi bir gazetalarni hukumat ma`lum vaqt yopib qo'yadi.
C) Jamiyat va har bir odamning axborot olishi – iqtisodiy va ma'naviy yuksa-lish garovidir
D) Soxtalashtirilgan jamoatchilik fikri shakllanmasligi uchun axborot tarqatish davlat yoki bir guruh shaxslarning monopoliyasi bo'lib qolishi lozim

35. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nechanchi yilda "O'zbekiston Respublikasida huquq ustuvorligini ta'minlash holatini aniqlashning samarali mexanizmini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi?
A) 2021-yil 14-yanvarda B) 2023-yil 30-aprelda
C) 2022-yil 7-dekabr D) 2023-yil 15-avgustda

36. Huquqiy sohaga mansub atamalarni izohi bilan birga belgilang.
1. firibgarlik; 2. farmoyish; 3. jazoga loyiqlik; 4. javobgarlik.
a) har qanday huquqbuzarlik sodir etgan shaxsning vakolatli davlat organi tomonidan javobgarlikka tortilishi;
b) nojo'ya harakati uchun javob berishni talab qiladigan holat;
c) davlat boshlig'i tomonidan chiqariladigan hujjat;
d) huquqbuzarning qonun yoki huquq normalari belgilab qo'ygan majburiy talablarini buzish;
e) davlatni boshqarish hujjatlari turlaridan biri;
f) aldash va boshqa yo'llar bilan o'zgalar mulkini g'arazgo'ylik maqsadida egallash
A) 1-c, 2-f, 3-a, 4-b B) 1-c, 2-a, 3-b, 4-d
C) 1-e, 2-a, 3-b, 4-d D) 1-f, 2-e, 3-a, 4-b

37. Voyaga yetmaganlarning huquq va majburiyatlari haqida keltirilgan to‘g‘ri fikrlarni toping.

1) oilada voyaga yetmagan bolaning manfaatlariga taalluqli har qanday masala hal qilinayotganda bola o‘z fikrini ifoda qilishga, shuningdek, har qanday sud muhokamasi yoki ma’muriy muhokama davrida so‘zlashga haqlidir;

2) ota-ona o‘z bolalarining qonuniy vakillari hisoblanadilar hamda har qanday jismoniy va yuridik shaxslar bilan bo‘ladigan munosabatlarda, shu jumladan, sudda alohida vakolatlar bilan ularning huquq va manfaatlarini himoya qiladilar;

3) ota-ona va bolalarning alohida-alohida mulki bo‘lishi ham mumkin bo`lib, birga yashab turganda ular bir-birlarining roziligi bilan bunday mulkka egalik qilishlari va ulardan foydalanishlari mumkin;

4) har qanday ota-ona o‘z farzandlariga o‘zaro kelishib yoki yaqin qarindosh-urug‘lari maslahati bilan ota-onasining ismiga ko‘ra, yoki o‘zlari xohlagan ismni qo‘yishlari mumkin;

5) ayrim sabablarga ko‘ra bolaning ota-onasi bo‘lmaganda uning oilada tarbiyalanish huquqi vasiylik va homiylik organi tomonidan, shuningdek adliya, ichki ishlar, prokuratura organlari tomonidan ta’minlanadi;

6) ota-ona hayotligida bolalar ularning mol-mulkiga nisbatan mulkdor bo‘lish huquqiga ega.

A) 2, 5, 6 B) 1, 4, 6 C) 1, 3, 4 D) 2, 3, 5

38. Huquqiy davlatning asosiy belgilari berilgan qatorni toping.

1) mulkchilik shakllari ta’minlanganligi va himoya qilinganligi;
2) hokimiyatning qonuniyligi;
3) demokratiyaning rivojlanganligi va takomillashganligi;
4) ko‘ppartiyaviylik tizimini rivojlanganligi;
5) davlat va fuqaroning bir-birlari oldida o‘zaro mas’uliyati;
6) ishlab chiqarishni yuksalishiga shart-sharoit yaratish;
7) huquqni muhofaza qilish mexanizmining samarali ishlashi;
8) yuqori darajadagi huquqiy madaniyat.

A) 2, 3, 5, 7, 8 B) 1, 2, 5, 7, 8 C) 2, 3, 4, 5, 8 D) 1, 4, 5, 6, 8

39. Notarial idoralar vazifalari to‘g‘ri berilgan javobni toping.

1) hujjatlardagi imzoning haqiqiyligini shahodatlaydi;
2) meros mol-mulkning qo‘riqlanishiga doir chora-tadbirlarni prokurorga taqdim etadi;
3) er-xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushga mulk huquqi va merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risida guvohnoma beradi;
4) ko‘chmas mulk sotib olinganligi haqida sudga da’vo beradi;
5) pul summalari va qimmatli qog‘ozlarni depozitga qabul qilib oladi;
6) fuqaroning fotosuratda aks ettirilgan shaxs ekanligini tasdiqlash uchun adliyaga kiritadi.

A) 2, 3, 6 B) 2, 4, 6 C) 1, 4, 5 D) 1, 3, 5

40. Fuqarolik jamiyatining xususiyatlari ijtimoiy-siyosiy sohada quyidagi qaysi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi?

1) o‘zini-o‘zi boshqarish organlari;
2) so‘z va fikr erkinligi;
3) ijodiy uyushmalarning mustaqilligi;
4) ijtimoiy qarama-qarshiliklarni qonun doirasida yechish imkoniyatlari;
5) vijdon erkinligi;
6) aholi fikrini o‘rganish;
7) firmalarning mavjudligi va ularning muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishlari;
8) jamoat tashkilotlari;
9) oilalar;
10) ilmiy uyushmalarning mustaqilligi.

A) 1, 2, 4, 7, 8 B) 2, 3, 4, 5, 10 C) 1, 4, 6, 8, 9 D) 3, 5, 6, 7, 10